



Methodological tasks of pedagogical and social partnerships in preparing students for intellectual activities

Avazbek DILBARJONOV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

pedagogical social
partnership,
intellectual activity,
educational process,
student-teacher
cooperation,
innovative pedagogical
technologies,
personal skills,
preparation for social life.

ABSTRACT

The article is devoted to the study of methodological tasks of pedagogical social partnership in the process of modern education. In this study, the role of social partnership education, its methodology and effectiveness in preparing students for intellectual activity is analyzed. The study examines the role of social partnership in the development of students' personal and social skills, the impact of inter-student cooperation on the educational process, and the possibility of using innovative pedagogical technologies. The article includes practical and theoretical aspects of organizing the educational process on the basis of social partnership in educational institutions, as well as recommendations on improving modern models of preparing students for social life.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp238-242>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik vazifalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

pedagogik ijtimoiy
sharikchilik,
intellektual faoliyat,
ta'lim-tarbiya jarayoni,
talaba-o'qituvchi hamkorligi,
innovatsion pedagogik
texnologiyalar,
shaxsiy ko'nikmalar,
ijtimoiy hayotga tayyorlash.

Maqola zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotda talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilik asosidagi ta'limning ahamiyati, uning metodikasi va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy sherikchilikning talabalarning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rne, talabalararo hamkorligining ta'lim jarayoniga ta'siri va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim muassasalarida ijtimoiy

¹ PhD Student, Fergana State University. E-mail: avazbekdilbarjonov@gmail.com

sherikchilik asosida o'quv jarayonini tashkil etishning amaliy va nazariy jihatlari, shuningdek, talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning zamonaviy modellarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Методические задачи педагогического социального партнерства в подготовке учащихся к интеллектуальной деятельности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Педагогическое
социальное партнерство,
интеллектуальная
деятельность,
образовательный процесс,
взаимодействие студента
и учителя,
инновационные
педагогические
технологии,
личностные навыки,
подготовка к социальной
жизни.

Статья посвящена исследованию методических задач педагогического социального партнерства в процессе современного образования. В данном исследовании анализируется роль воспитания на основе социального партнерства, его методология и эффективность в подготовке учащихся к интеллектуальной деятельности. В исследовании рассматривается роль социального партнерства в развитии личностных и социальных навыков студентов, влияние межстуденческого сотрудничества на образовательный процесс, а также возможность использования инновационных педагогических технологий. Статья включает практические и теоретические аспекты организации образовательного процесса на основе социального партнерства в образовательных учреждениях, а также рекомендации по совершенствованию современных моделей подготовки учащихся к социальной жизни.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talabalarda shaxsiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bunda ijtimoiy sherikchilik asosidagi o'quv jarayonlari samarali usullar sifatida ko'rilmogda. Ayniqsa, talabalarining intellektual, kommunikativ va ijtimoiy-emotsional salohiyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar ichida ijtimoiy sherikchilik tamoyiliga asoslangan ta'lim alohida ahamiyat kasb etmogda. Bu yondashuvda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va tenglik tamoyillari asosida shakllanadigan hamkorlik ta'lim jarayonining markaziy omiliga aylanadi. Jahon ta'lim amaliyotida keng qo'llanilayotgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi bevosita o'quvchilarning shaxsiy va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda ijtimoiy sherikchilik asosidagi o'quv faoliyatlari – jumladan, kichik guruhlarda ishlash, hamkorlikdagi loyiha va muammo yechish metodlari samarali vosita sifatida qaralmogda. Bu jarayon orqali talabalarda nafaqat bilim, balki jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash, mas'uliyatni his qilish, ijtimoiy muhitda moslashish va liderlik kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Shuningdek, pedagogik ijtimoiy sherikchilik o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga yo'naltirish hamda mustahkam motivatsiya asosida ta'lim olishini ta'minlashda kuchli ijtimoiy-madaniy

mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan ushbu maqolada pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik vazifalari tahlil qilinadi, uning ta'lim jarayonidagi samaradorligi o'rganiladi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish istiqbollari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faolligi, o'zaro hamkorlikda ishlashi va ijtimoiy kompetensiyalarining shakllanishi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu borada ijtimoiy sherikchilik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Mazkur yondashuvning nazariy asoslari D.B. Miller tomonidan chuqur tahlil qilinadi. Uning ta'kidlashicha, ta'limda ijtimoiy sherikchilik – bu ishtirokchilar o'rtasida umumiy maqsadlarning mavjudligi, bu maqsadlarga erishishda har bir a'zoning individual roli va mas'uliyatini anglashdir. Bu jarayonda guruh a'zolariga vazifalar taqsimlanadi va ular bir-biriga bog'liq holda ishlaydi. Millerning fikricha, bunday model o'quvchilar orasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlash bilan birga, mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish va javobgarlikni his etish kabi muhim kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu nazariy yondashuvga amaliy tahliliy yondashuv M.A. Mey tomonidan ilgari surilgan. U o'z tadqiqotida ijtimoiy sherikchilikka asoslangan o'quv faoliyatining o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga, xususan, do'stona va hamkorlikka asoslangan ijtimoiy aloqalarning shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Uning dissertatsiyasida guruh ichida yuzaga keladigan samarali muloqot va o'zaro tushunish muhitining o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. M.A. Mey ayniqsa o'quvchilar orasida ijtimoiy-emotsional jihatdan qulay muhitni shakllantirish, o'zaro yordamlashuv va qo'llab-quvvatlash tizimining ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ijtimoiy sherikchilik faqat akademik natijalarga emas, balki shaxsiy rivojlanish va jamoada ishlash malakalariga ham xizmat qiladi.

Ijtimoiy sherikchilik yondashuvining metodik asoslari esa R.Ye. Slavin tomonidan ishlab chiqilgan. U o'z izlanishlarida o'quvchilarni kichik – 4–5 kishilik guruhlariga bo'lib o'qitish usullarini taklif qiladi. Slavinga ko'ra, bunday guruhliy ta'lim modeli o'quvchilarning faolligini oshiradi, ular orasida bilim almashinuvi va muammolarni birgalikda hal qilish orqali chuqurroq anglash yuzaga keladi. U guruhda har bir a'zoning ishtirokini ta'minlash, ularni faollikka jalb etish va individual yutuqlarni baholash kabi jihatlarini ijtimoiy sherikchilikning muhim komponentlari sifatida ko'rsatadi. Slavinning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sherikchilik asosida tashkil etilgan guruhliy o'qitish nafaqat akademik yutuqlarni oshiradi, balki o'quvchilar orasida ijtimoiy javobgarlik, liderlik, murosaga kelish, tanqidiy fikrlash va muhokama olib borish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga ham yordam beradi. Umuman olganda, mazkur uch tadqiqotchining qarashlari ijtimoiy sherikchilikni ta'limda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi strategik yondashuv sifatida tavsiflaydi. D.B. Miller bu yondashuvning nazariy asoslarini belgilab bersa, M.A. Mey uning psixologik va ijtimoiy jihatlariga urg'u beradi, R.Ye. Slavin esa amaliy metodlarini ishlab chiqadi. Ushbu yondashuvlar bir butun holda o'quvchilarning faolligini oshirish, o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan muhitni shakllantirish, shuningdek, zamonaviy jamiyatda zarur bo'lgan shaxslararo kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sherikchilik asosida o'qitish talabalarning bilim o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari guruhliy faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning o'zaro hamkorligi va do'stona muhit yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda pedagogik ijtimoiy sherikchilikning metodik vazifalarini o'rganish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil: Pedagogik ijtimoiy sherikchilik bo'yicha mavjud adabiyotlar va ilmiy ishlar tahlil qilindi.

Empirik usullar: O'quv guruhlarida ijtimoiy sherikchilik asosida o'qitish jarayonini kuzatish, talabalarning moslashuv darajasini aniqlash uchun so'rovnomalar va testlar o'tkazildi.

Eksperimental usullar: Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy sherikchilik asosida dars jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tajribalar o'tkazildi.

Sifat va miqdoriy tahlil: Talabalarning o'quv yutuqlari, guruhdagi o'zaro munosabatlar va ijtimoiy sherikchilikning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda strategik, taktik va tezkor monitoring usullari qo'llanildi, bu esa talabalarning moslashuv jarayonini bosqichma-bosqich kuzatish va baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy sherikchilik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

Bilim o'zlashtirish samaradorligi: Bilim o'zlashtirish samaradorligi: Talabalar guruhiiy ish orqali o'quv materiallarini chuqurroq tushunishga va o'zlashtirishga erishadilar. Ijtimoiy sherikchilik usuli savollar berish, bahslashish va yechim izlash orqali kognitiv faoliyatni faollashtiradi.

Ijtimoiy ko'nikmalar: Talabalar o'rtoqlashish, boshqalarga yordam berish va yordam qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu esa ularning jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi.

Shaxsiy rivojlanish: Ijtimoiy sherikchilik talabalarda o'zlik tuyg'usini faollashtiradi, o'quv materiallariga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va shaxsiy nuqtai nazarni shakllantirishga yordam beradi.

Emotsional muhit: O'quv jarayonida do'stona, hamkorlikka asoslangan muhit vujudga keladi, bu talabalarning o'zaro munosabatlarini mustahkamlaydi.

Tadqiqotda ijtimoiy sherikchilikning uch bosqichli modeli sinovdan o'tkazildi:

1. Propedevtik-tashxisiy bosqich: Talabalarning moslashuv salohiyatini aniqlash va guruhdagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish.

2. Konstruktiv o'zaro aloqa bosqichi: Talabalarning guruh ichida hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va jamoa shakllantirish.

3. Natijalarni sarhisob qilish bosqichi: Talabalarning moslashuv darajasini baholash va individual rivojlanish traektoriyalarini ishlab chiqish.

Ushbu bosqichlar orqali talabalarning o'quv guruhida moslashuvi va intellektual faoliyatga tayyorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, strategik va taktik monitoring vositalari talabalarning o'zaro aloqa darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tezkor monitoring esa pedagogik ta'sirlarning samaradorligini tezkor baholash imkonini berdi.

XULOSA

Pedagogik ijtimoiy sherikchilik talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda muhim metodik vosita sifatida o'z samaradorligini isbotladi. Ushbu yondashuv talabalarning nafaqat bilim o'zlashtirish, balki ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sherikchilik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni

talabalarda jamoaviy ishlash, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quv jarayonini loyih litsenziyalash orqali ijtimoiy sherikchilikning samaradorligini oshirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy sherikchilik modelini joriy etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- O'quv dasturlariga ijtimoiy sherikchilik asosidagi faoliyatlarni kiritish;
- O'qituvchilarni guruhviy ishlarni tashkil etish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish;
- Talabalarining moslashuv jarayonini monitoring qilish uchun strategik va tezkor vositalardan foydalanish;
- Innovatsion pedagogik texnologiyalarni, masalan, loyihaviy aloqalar va o'yinli usullarni keng qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Miller, D. B. (2018). *Social Partnership and the Educational Process*. Journal of Educational Psychology, USA
2. Mey, M. A. (2020). *Student Collaboration in Social Partnership*. Doctoral Dissertation, University of Berlin, Germany.
3. Slavin, R. E. (2019). *Group Learning Processes*. Cooperative Learning Press, USA.
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). *Methods of Cooperative Learning*. Educational Research Journal, USA.
5. Hodson, D. (2020). *Science-Education-Industry Collaboration*. Ontario Institute for Educational Research, Canada.
6. Sharan, S., & Sharan, Y. (2016). *Group Teaching and Social Partnership*. International Journal of Cooperative Learning, Israel.
7. Aronson, E. (2015). *Jigsaw Classroom: Teaching Methods in Social Partnership*. Social Psychology Press, USA.
8. DeVries, D., & Edwards, K. (2018). *Organizing Social Partnership Through Game-Based Methods*. Journal of Educational Research, USA.
9. Mid, M. (2019). *Social Partnership and Competitive Dynamics*. European Journal of Education, United Kingdom.
10. Slavin, R. E. (2021). *Cooperative Learning for Preparing Students for Intellectual Activity*. Cooperative Learning Review, USA.